

Musoning tugʻilishi



13:30 / 15.08.2021 2460

Alloh taolo aynan Fir'avn qoʻrqib ogohlantirayotgan hodisaning amalga oshishini iroda qildi. Kelajakda Fir'avn mulkini yoʻq qiladigan ana oʻsha goʻdak dunyoga keldi. Bani Isroilning Fir'avn qoʻlidan ozod boʻlishiga, taqdir qilgan ana oʻsha goʻdak dunyoga keldi. Insonlarni insonlarga qiladigan ibodatidan Alloh ibodatiga qaytishiga taqdir qilgan ana oʻsha goʻdak dunyoga keldi. Insonlarni zulmatlardan nur tomon odimlashiga sababchi boʻladigan goʻdak dunyoga kelishini Alloh taqdir qildi. Muso ibn Imron Fir'avn va uning askarlari boʻlishiga qaramasdan dunyoga keldi. Muso mirshab va kuzatuvchilar boʻlishiga qaramasdan sogʻ-omon uch oy yashadi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad